



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 184 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAXSUS IQTISODIY ZONALARI INVESTITSION HOLATINI HUDUDLAR KESIMIDA TAHLILI

Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti tayanch doktoranti

Email: abd.anvarxonov@wiut.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Maxsus iqtisodiy zonalarga jalb qilingan asosiy kapitalga investitsiyalarning hududiy kesimda tahlili amalga oshirilgan. Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida 2018–2024-yillar davrida MIZlarga kiritilgan investitsiyalar hajmi va ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, MIZlar mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollikni oshirib boryapti. 2024-yilda ularning ulushi jami investitsiyalarning 3,3 foizini tashkil etgan. Hududiy kesimda esa eng yuqori natijalar Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida qayd etildi. Shu bilan birga, investitsiyalar oqimi yillik kesimda barqaror emasligi kuzatildi. Maqolada MIZlarning iqtisodiy o'sish va hududiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilib, ularning samaradorligini oshirish uchun barqaror investitsion oqimni ta'minlash maqsadida davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va uzoq muddatli investitsion dasturlar ishlab chiqish hamda investitsiyalarni faqat ayrim viloyatlarda to'planib qolmasligi uchun boshqa hududlarda ham MIZlarning jozibadorligini oshirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Maxsus iqtisodiy zonalar, investitsion salohiyat, asosiy kapitalga investitsiyalar, hududlardagi rivojlanish.

Abstract: This article analyzes investments in fixed capital attracted to Special Economic Zones (SEZs) in Uzbekistan in terms of regional distribution. Based on data from the State Committee on Statistics, the study examines the volume of investments made in SEZs during 2018–2024 and their share in total investments. The analysis shows that SEZs are increasing investment activity in the national economy. In 2024, their share amounted to 3.3% of total investments. Regionally, the highest results were recorded in Bukhara, Samarkand, Navoi, Jizzakh, and Syrdarya regions. At the same time, the annual investment flow proved to be unstable. The article highlights the significance of SEZs in economic growth and regional development, suggesting measures to ensure stable investment inflows through government guarantees, tax incentives, and long-term investment programs, as well as strategies to enhance the attractiveness of SEZs in other regions to prevent investment concentration in a limited number of areas.

Key words: Special Economic Zones, investment potential, fixed capital investments, regional development.

Аннотация: В данной статье проведён анализ инвестиций в основной капитал, привлечённых в специальные экономические зоны (СЭЗ) Узбекистана в региональном разрезе. На основе данных Государственного комитета по статистике изучены объёмы инвестиций в СЭЗ в 2018–2024 годах и их доля в общем объёме инвестиций. Анализ показал, что СЭЗ постепенно повышают инвестиционную активность в национальной экономике. В 2024 году их доля составила 3,3% от общего объёма инвестиций. В региональном разрезе наибольшие показатели зафиксированы в Бухарской, Самаркандской, Навоийской, Джизакской и Сырдарьинской областях. Вместе с тем отмечена нестабильность годового потока инвестиций. В статье раскрывается значение СЭЗ для экономического роста и регионального развития, а также предлагаются меры по обеспечению устойчивого притока инвестиций за счёт государственных гарантий, налоговых льгот и долгосрочных инвестиционных программ, а также по повышению привлекательности СЭЗ в других регионах во избежание концентрации инвестиций лишь в отдельных областях.

Ключевые слова: специальные экономические зоны, инвестиционный потенциал, инвестиции в основной капитал, региональное развитие.

KIRISH

Mamlakatlar iqtisodiyotida faollikni oshirish hamda hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirishda investitsiyalarni jalb qilish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish, texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilishga ehtiyoj sezadi. Ushbu iqtisodiy rivojlanish omillarini qo'llashda esa Maxsus iqtisodiy



zonalar (MIZ) muhim vosita hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, MIZlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun faol qo'llaniladigan vositaga aylandi.

Masalan, eng muvaffaqiyatli deb ko'riladigan Xitoy iqtisodiyotida MIZlarning o'rni yuqori. Xitoy savdo vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Xitoyga kelgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 23,4 foizi MIZlar hissasiga to'g'ri keladi [1]. Shuningdek, MIZ loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan Polsha, Hindiston, Irlandiya kabi mamlakatlarda ham bir qator ijobiy natijalarga erishilgan.

O'zbekistonda ham MIZlarni tashkil qilishga qaratilgan harakatlar 90 yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan. O'sha davrda ya'ni 1996-yilda birinchi marta "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qabul qilingan Qonunda MIZlarning ta'rifi, huquqiy maqomi, turlari va ularga berilgan imtiyozlar belgilab o'tilgan. Qonun qabul qilinganidan 12 yil o'tib, ilk MIZ 2008-yilda Navoiy viloyati Karmana tumanida tashkil qilingan bo'lsa, 2012-yilda Toshkent viloyati Angren shahrida hamda 2013-yilda Jizzax viloyati Jizzax shahrida tashkil qilingan. 2016-yildan keyin MIZlarning soni bir necha barobarga oshdi hamda 2025-yilning boshida jami 22 tani tashkil qildi. Bugungi kunda har bir ma'muriy birlikda kamida bitta turli ko'rinishdagi MIZlar faoliyat yuritadi. Ushbu MIZlar iqtisodiyotning turli sohalariga ixtisoslashgan bo'lib, jumladan erkin iqtisodiy zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, erkin savdo zonalar, maxsus sanoat zonalar kabi turlarga bo'linadi. Shuningdek, 2019-yilda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi yangi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda MIZlarga oid asosiy tushunchalar, vakolatlar, rivojlanish dasturlari, investitsion loyihalarga oid talablar kabilar belgilab o'tilgan. Ushbu Qonunga ko'ra MIZlarga berilgan ta'rif quyidagicha [2]:

Maxsus iqtisodiy zona — tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud.

Yuqoridagi qonundan tashqari bir necha Prezident qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilingan. Bu kabi qonunosti hujjatlar bugungi kunda o'ndan ortiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-son Farmonida MIZlar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun bir necha maqsadlar belgilab olindi. Ulardan biri maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni o'zlashtirish hisoblanadi [3].

Shuningdek, farmonga muvofiq yangi tahrirdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda "Sanoat zonalar to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu maqolada O'zbekistondagi MIZlarga jalb qilinayotgan asosiy kapitalga investitsiyalarning hududiy kesimda tahlili olib borilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

MIZlarning investitsiyalarni jalb qilishdagi vosita o'laroq ahamiyati muhim hisoblanadi. MIZlarning iqtisodiyotdagi o'rni O'zbekistonda ham tahlil qilib boroladigan sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa 2017-yildan keyin MIZlarning son jihatdan kengayishi ularni yanada muhim tadqiqot obyektiga aylantirdi va sifat jihatdan o'rganish muhimligi yuzaga chiqq boshladi.

Jahon banki tomonidan 2017-yilda nashr qilingan tahliliy hisobotda MIZlar investitsiyalar uchun jozibador muhit paydo qilishda, turli xil xarajatlarni kamaytirishda, turli imtiyozlar orqali jozibador muhit shakllantirib, iqtisodiy o'sishga erishishga yordam beradigan vosita sifatida qaralgan [4].

Xususan, Song 1998-2018-yillar uchun olib borgan tadqiqotda Xitoyda MIZlar investitsiyalarni jalb qilishini va bu orqali institutlar sifatini yaxshilash, hamda iqtisodiy o'sishga erishish sezilarli darajada oshganini aniqlagan [5].

Vadhana va boshqalar olib borgan tadqiqotda Indoneziyadagi bir MIZ tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan hamda ham hududning rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda MIZning ishlab chiqarish hajmini ortishiga, mehnatga bo'lgan daromadni oshiga olib ijobiy ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. O'z navbatida bu iqtisodiy o'sishga olib kelib, infratuzilma va mutaxassislarda malaka pastligi kabi omillarning salbiy ta'siri mavjudligi keltirib o'tilgan [6].

O'zbekistondagi MIZlar bo'yicha qilingan tadqiqotda ular turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan YaIM, tashqi savdo, bandlik kabi ko'rsatkichlarga ta'siri ahamiyatli ekanligi, shuningdek, infratuzilma, korrupsiya kabi omillarning salbiy ta'siri mavjudligi aniqlangan [7].

Kambodja uchun olib borilgan tadqiqotda 2015-2019-yillaridagi ma'lumotlardan foydalanilgan hamda tadqiqot natijasiga ko'ra mamlakatning MIZ mavjud hududlari MIZ mavjud bo'lmagan hududlariga nisbatan ko'proq investitsiyalarni jalb qilgani hamda investitsion diversifikatsiya mavjudligi aniqlangan [8].

Tadqiqotlardan ko'rish mumkinki, MIZlar mamlakatda investitsiyalarning jalb qilishga va oxir-oqibat iqtisodiy o'sishga sabab bo'lishga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham



TADQIQOT METODOLOGIYA

Mamlakat hududlaridagi MIZlarning asosiy kapitalga investitsiyalarini hududlar kesimida tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar 2018-yildan berila boshlangan. Bunga sabab qilib, aksar MIZlar 2017-yilda tashkil qilinganini keltirish mumkin. Statistik ma'lumotlarda mamlakatga kirib kelgan investitsiyalar hajmi, ularning MIZlardagi ulushi, hududlar kesimida taqsimoti kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Metodologiyada deskriptiv tahlildan foydalanilgan bo'lib, unda investitsiyalar hajmining hududlar bo'yicha taqsimoti, dinamikasi, o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlardan foydalanilgan va hududlar kesimida taqqoslab, tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy saytida 2018-2024-yillarda MIZlarga oid hududlar kesimida statistik ko'rsatkichlar taqdim etilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar asosida MIZlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini tahlil qilish mumkin.

O'zbekistonda yuritiladigan investitsiyalarga oid statistik ma'lumotlarda asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lib, avvalo asosiy kapitalga investitsiyalarga to'xtalib o'tish zarur.

Asosiy kapitalga investitsiyalar — bu foyda olish maqsadida mulklar, binolar, texnikalar kabi asosiy vositalarni sotib olish, qurish, rekonstruksiya qilish, yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan sarmoyalardir. O'zbekistonda bu investitsiyalar iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega va turli manbalar (korxona va aholi o'z mablag'lari, chet el investitsiyalari, kreditlar) hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasiga asosiy kapitalga investitsiyalarning jami hajmi bilan MIZlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi solishtirilganda, 2024-yilni hisobga olmaganda jami investitsiyalarning 2 foizini ham tashkil qilmaganini ko'rish mumkin. Lekin, 2024-yilda MIZlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar jami investitsiyalarning qariyb 3 foizdan ortig'ini tashkil qilgan. Bu esa sekin-astalik bilan ijobiy tendensiya shakllanayotganini namoyon etadi [8] (1-jadval).


1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2018-2024-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalarning mamlakat miqyosidagi va MIZlardagi hajmi

Yillar	Mamlakat miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mln. so'm)	MIZlar miqyosida asosiy kapital investitsiyalar hajmi (mln. so'm)	Mamlakat miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (foizda)	MIZlar miqyosida asosiy kapital investitsiyalari hajmi(foizda)
2018	124231300	1507592.2	100	1.2
2019	195927300	3313085.5	100	1.7
2020	210195100	3971565.6	100	1.9
2021	239552600	3319884.8	100	1.4
2022	266240000	3735027.5	100	1.4
2023	356071400	6269579.9	100	1.8
2024	507490200	16511533.2	100	3.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2024-yilda MIZlar tomonidan o'zlashtirilgan jami investitsiyalar 16511,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Agar bu hajm AQSh dollari nisbatiga hisoblanadigan bo'lsa 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdorini tashkil etadi. Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-41-son Farmoniga muvofiq MIZlarga investitsiyalarni hajmini 2,3 mlrd. AQSh dollarga oshirish reja qilingan. 2024-yilda 2023-yilga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2,3 baravarga oshgan. Agar 2024-yildagidek tendensiya davom etadigan bo'lsa, yaqin yillarda mazkur maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

MIZlarga kiritilayotgan asosiy kapitalga investitsiyalar mamlakat miqyosida kam ko'ringani bilan lekin MIZlarning o'tgan yildagi ma'lumotlari bilan solishtirganda tendensiya ijobiy tomonga o'zgarayotganini ko'rish mumkin va yildan-yilga ularning hisssasi oshib boryapti [8] (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2018-2024-yillarda MIZlar miqyosida asosiy kapital investitsiyalarining o'sish sur'ati (foizda).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Agar Koronavirus pandemiyasini hisobga olmaganda, MIZlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalarining o'sish sur'ati 2018-yil bilan taqqoslaganda 2024-yilda 1,5 barobardan ortiqqa oshganini ko'rish mumkin.

Hududlar miqyosida taqqoslanadigan bo'lsa hududlardagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini shu hududlardagi MIZlarning asosiy kapitalga investitsiyalarining hissassi bilan solishtirganda eng yuqori hissa Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo ketma-ketligiga to'g'ri kelyapti [8] (2-rasm).




2-rasm. 2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi hududlardagi MIZlarning asosiy kapitalga investitsiyalarini hududlardagi jami asosiy kapitalga investitsiyalaridagi ulushi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Yuqoridagi grafikdan ko'rsa bo'ladiki, 2024-yil uchun eng yuqori ulush 12,7 foiz bilan Buxoro viloyati hududiga to'g'ri kelgan. Lekin oldingi yillarda Buxoro viloyatida joylashgan MIZlarga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi juda past bo'lgan. 2024-yilda qolgan hududlar mos tarzda Samarqand viloyatida 9,5 foiz, Navoiy viloyatida 5,5 foiz, Jizzax viloyatida 4,4 foiz, Sirdaryo viloyatida 4,1 foizni tashkil etadi. Ushbu beshlikdagi Navoiy va Jizzax viloyatlarida tashkil topgan MIZlar birinchilardan tashkil topgan bo'lsa, qolganlari 2017-yilda tashkil topgan.


2024-yilda MIZlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar ulushida eng yuqori hissa Buxoro viloyatiga to'g'ri kelayotganini ko'rish mumkin. Samarqand, Navoiy, Toshkent va Jizzax viloyatlarining ulushi ham boshqa quyi ko'rsatkichlarga ega viloyatlar bilan solishtirganda ancha yaxshi. Lekin umuman olganda, hududlararo taqsimotning bunday darajada farq qilishi boshqa hududlarda ayrim muammolar mavjudligini ham namoyon qiladi. Hududlar orasida Xorazm (0,2 foiz) va Qashqadaryo (0,1 foiz) viloyatlarining ulushi eng quyi hisoblanadi va bu hududlardagi holatni yaxshilash uchun alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, Qashqadaryoda MIZ tashkil etilganiga hali ikki yil ham bo'lmaganini inobatga olish maqsadga muvofiq [8] (3-rasm).



3-rasm. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha MIZlarning asosiy kapitalga investitsiyalarini mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha ulushi (foizda).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Agar hududlar bo'yicha eng ko'p qabul qilingan asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori solishtirilganda 2024-yil uchun Buxoro, Samarqand, Navoiy va Toshkent viloyatlari oldingi o'rinlarda turibdi [8] (4-rasm).



4-rasm. 2018-2024-yillarda hududlardagi MIZning asosiy kapitalga investitsiyalari hajmi (yillik, mln. so'm).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Shunisi e'tiborliki, Buxoro viloyatidagi MIZ o'tgan yillarda deyarli investitsiyalar jalb qilmagani holda 2024-yilga kelib, birinchilikka chiqib olgan va O'zbekistondagi jami MIZlar qabul qilgan investitsiyalarni 39,6 foizini hamda Buxoro viloyatiga kelgan investitsiyalarning 12,7 foizini qamrab olgan. Bu ko'rsatkichlar esa o'zidan keyingi o'rinlarda turuvchi MIZlardan bir necha barobar yuqorida ekanligini namoyon qiladi. Lekin hech bir viloyatlardagi MIZlarda kelayotgan investitsiyalar barqaror sur'atga ega emas. Ya'ni, ba'zi yillarda investitsiyalar



hajmi yuqori bo'lsa, ba'zi yillarda investitsiyalar hajmi juda quyi ko'rsatkichga ega bo'ladi. Ma'lumot uchun, ushbu hududlardan Navoiy va Toshkent viloyatida joylashgan MIZlar O'zbekiston hududida birinchilardan bo'lib tashkil topgan MIZlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda MIZlar investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli o'sishga erishmoqda. 2018–2024-yillar davomida MIZlarga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi asta-sekin oshib, 2024-yilda jami investitsiyalarning 3,3 foizini tashkil qildi. Hududlar kesimida esa Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari yetakchi o'rinlarni egalladi. Shuningdek, Buxoro viloyatida MIZlarning qisqa davr ichida keskin o'sishi kuzatilib, investitsiyalarning deyarli 40 foizini jalb qilgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, hududlarda investitsiya oqimining barqaror emasligi va ayrim yillarda keskin pasayishi MIZlarning samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Barqaror investitsion oqimni ta'minlash – yillik keskin tebranishlarni kamaytirish uchun davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va uzoq muddatli investitsion dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Hududiy diversifikatsiyani ta'minlash – investitsiyalarni faqat ayrim viloyatlarda to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa hududlarda ham MIZlarning jozibadorligini oshirish kerak.

Ushbu choralar amalga oshirilsa, O'zbekistondagi MIZlar nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki iqtisodiy o'sish va hududiy rivojlanishni ta'minlashda yanada samarali mexanizmga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xitoy Xalq Respublikasi Savdo vazirligi ma'lumotlari - <https://fdi.mofcom.gov.cn/EN/come-zonghe-con.html?id=47159>
2. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020 yildagi O'RQ-604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni - <https://lex.uz/ru/docs/-4737511>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2025 yildagi PF-41-son "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/-7420262>
4. Wong, Michael D.; Buba, Johanne. (2017). Special economic zones: an operational review of their impacts (English). Washington, D.C.: World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/316931512640011812>
5. Song, Y., Deng, R., Liu, R., & Peng, Q. (2020). Effects of Special Economic Zones on FDI in Emerging Economies: Does Institutional Quality Matter? Sustainability, 12(20), 8409. <https://doi.org/10.3390/su12208409>
6. Wardhana, I.W., Riesfandiari, I., Jamal, E. et al. (2025). Does a special economic zone impact the surrounding economy? The case study of Kendal, Indonesia. Humanit Soc Sci Commun 12, 225. <https://doi.org/10.1057/s41599-025-04448-0>
7. Ahn, Y.-J., Juraev, Z., & Gu, J.-Y. (2024). Analyzing Free Economic Zones in Uzbekistan for Sustainable Growth. Indonesian Journal of Geography, 56(1), 44–51. <https://doi.org/10.22146/ijg.84351>
8. Theot Therith, C. (2022). Effect of Investment Promotion through the Special Economic Zone Mechanism on the Distribution of FDI in Cambodia. Economies, 10(9), 231. <https://doi.org/10.3390/economies10090231>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari - <https://siat.stat.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>